

Date: 21stOctober-2025

**ART TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TALABALARNING
KREATIVLIKKOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI**

Abdusattorova Nodiraxon Abduraxmon qizi

Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on shahar

8-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

Tasviriy san‘at fani o‘qituvchisi.

abdusattorovanodiraxon@gmail.com

Kirish: So‘nggi yillarda ta‘lim tizimida raqamli vositalar va san‘at texnologiyalarining uyg‘unlashuvi yangi pedagogik yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, san‘at ta‘limida ART texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish, o‘quvchi va talabalarning individual ijodiy qobiliyatlarini ochish uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Kreativlik — bu har bir shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, mavjud holatlarga yangicha qarash va muammolarga noodatiy yechim topish salohiyatidir. ART texnologiyalar esa bu jarayonni raqamli muhitda rivojlantirish, o‘z fikrinitasviriy shaklda ifodalashga yordam beruvchi qudratli vositadir.

Asosiy qism: ART texnologiyalar deganda sun‘iy intellekt, grafik dizayn, raqamli rasm chizish dasturlari, animatsiya va virtual reallik vositalari orqali badiiy jarayonni tashkil etish tushuniladi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchi va talabalar san‘atning turli yo‘nalishlarini zamonaviy shaklda o‘rganish, o‘z g‘oyalarini kreativ tarzda ifodalash imkoniga ega bo‘ladilar. Masalan, tasviriy san‘at mashg‘ulotlarida Procreate, Sketchbook, Krita yoki Canva dasturlaridan foydalanish orqali talaba o‘z ishini tez va sifatli bajarishi, rang uyg‘unligini sinovdan o‘tkazishi yoki kompozitsiyani raqamli tahlil qilishi mumkin. Bundan tashqari, sun‘iy intellekt asosidagi generatorlar (masalan, DALL·E, Bing Image Creator, Midjourney) yordamida g‘oyalarni vizual shaklga keltirish orqali talabalar nafaqat tayyor natijani ko‘radi, balki o‘zining tasavvur doirasini kengaytiradi. Shunday mashg‘ulotlarda o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, original yechim topishga va o‘z badiiy qarashlarini himoya qilishga o‘rgatadi. Kreativlikni shakllantirishda muhim jihatlardan biri — bu ijodiy muhit yaratishdir. ART texnologiyalar o‘quvchilarni erkin, interaktiv, tanqidiy fikr yuritishga undaydi. Masalan, talabalarga “mavhum his-tuyg‘uni raqamli shaklda ifodalang” degan topshiriq berilsa, har bir ishtirokchi o‘z ichki holatini grafik ko‘rinishda ifodalaydi. Bu esa shaxsiy tajriba va hislarni badiiy tahlil orqali ifodalashga yordam beradi. Raqamli san‘at va kerativ fikrlash “Digital art as a tool for developing students creativity” tadqiqotida, san‘at bo‘yicha oliy ta‘lim talabalarida raqamli san‘at vositalarini o‘quv jarayoniga kiritish kreativ fikrlash va kreativ ko‘nikmalarni oshirishga yordam beradi. Talabalar raqamli vositalardan foydalanganda yuzaga keladigan muammolar ham aniqlangan: texnik imkoniyatlar cheklanganligi, kreativlikni “shablon” qilish ehtimoli. Sun‘iy intellekt va mashina o‘rganish (Machine Learning) bilan san‘at darslari “Research on cultivating students’ creative thinking ability in art design teaching based on machine learning” nomli maqolada o‘quv jarayonida ML algoritmlaridan



Date: 21stOctober-2025



foydalangan holda talabalar dizayn interfeyslarida yangi g'oyalar yaratish, kreativ qarorlar qabul qilishda adolatli yordamchilar bo'lishi tanqidiy ko'nikmalarnip oshirishga sabab bo'lishi ko'rsatildi. Bu usulda talabalar vizual elementlarni matematik va texnologik parametrlar asosida tahlil qiladilar, tajriba-sinov orqali o'z stilini topaInteraktiv va ijtimoiy yondashuvlar “Socially Interactive Approaches and Digital Technologies in Art Education: Developing Creative Thinking in Students During Art Classes” maqolasida STEAM yondashuvi, guruhli loyihalar, interaktiv media vositalari (VR, multimedia platformalari) talabalarning kreativty darajasini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Shuningdek, reflektiv mashqlar (journaling, san'at tahlili) kabi metodlar — talabalar ijodiy fikrlashni nafaqat amalda ishlatadi, balki o'z fikrlarini tanqidiy baholashga ham o'rgatadi.

Xulosa: ART texnologiyalarini o'quv jarayoniga kiritish talabalarda kreativlikni rivojlantirishning samarali yo'lidir. Bu metod nafaqat san'atni o'rgatadi, balki talabalarda mustaqil fikrlash, muammoga ijodiy yondashish, raqamli savodxonlik va estetik tafakkurni shakllantiradi. Natijada, o'quvchi yoki talaba zamonaviy san'atni anglaydigan, texnologiyadan ijodiy foydalanadigan, yangi g'oyalarni ilgari sura oladigan ijodkor shaxsga aylanadi. Shu boisdan, ART texnologiyalarni ta'lim jarayonida muntazam qo'llash pedagogik amaliyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov A. “Raqamli texnologiyalar va san'at ta'limi integratsiyasi”, Ta'lim va fan jurnali, 2023.
2. Rasulova M. “Kreativ fikrlashni rivojlantirishda san'atning o'rni”, Pedagogika va innovatsiyalar, 2024.
5. Karimov, A. (2023). “Raqamli texnologiyalar va san'at ta'limi integratsiyasi.” Ta'lim va fan jurnali, 4(2), 45–51.
6. Rasulova, M. (2024). “Kreativ fikrlashni rivojlantirishda san'atning o'rni.” Pedagogika va innovatsiyalar, 3(1), 27–34.
7. Li, Y., & Zhang, W. (2025). Artificial Intelligence in Art Education: Transforming Visual Arts Training. International Journal of Cognitive Research in Science, Engineering and Education (IJCRSEE), 13(1),